
“Har narsaga yetgan aqlingiz shunga qolganda oqsaydur...”

Ijtimoiy tarmoqlardagi Farg'ona viloyati hokimi to'g'risidagi shov-shuvlarni va unga taniqli jurnalistlarning ham qimmatli vaqtlarini sarflab imlo xatolariga ham e'tibor bermay, yozganlarini o'qib, o'zbek xalqining sevimli asari “O'tgan kunlar”dagi holat yodimga tushdi: Otabek o'z otasi Yusufbek xojini bilib-bilmay ayblagandagi so'zlariga bergan javobi: “Har narsaga yetgan aqling shunga qolganda oqsaydur. Nega yong'an yuraginga sen ham zahar sochasan....”

Men bu fikrlarni avvalo viloyatning oddiy fuqarosi va fikrlarimni o'qib bo'lib, oxirida bunga ko'nmaydiganlar uchun esa viloyat hokimligining matbuot kotibi sifatida ham bildirmoqdaman.

... 2018 yil 18 yanvar kungi Qozog'iston Respublikasining Aqto'be viloyatidagi fojea butun xalqimizni, musulmonlarni, barcha do'stlarni, ko'pchilikni kattiq qayg'uga soldi. Oddiy insondan tortib mutasaddi rahbarlargacha, fojeadan xabardor bo'lgan har bir odam o'z dunyoqarashi bilan, ta'bir joiz bo'lsa ilmi bilan unga o'z munosabatini bildirdi, o'ziga yarasha xulosalar chiqara boshladi.

Bu voqeaning yuz berishiga oid turli sabablar haqida ham hammada turli xil fikrlar bo'ldi. Aksariyatimiz albatta, taqdiri ilohiy degan muqaddas e'tiqodimizga tayanib tasallini shundan topdik. Zero, hech bir Allohning sinovi behikmat emasligiga haqiqiy musulmonlarning iymonlari komil.

23 yanvar, seshanba kuni tongda Namangan xalqaro aeroportiga Aqto'beda halok bo'lganlarning tobuti ortilgan Favqulodda vaziyatlar vazirligi samolyoti kelib qo'ndi. Samolyotda fojea qurboni bo'lgan 31 nafari Namangan, 16 nafari Farg'ona va 2 nafari Andijon viloyati fuqarolarining jasadlari keltirildi. Aeroportda uch viloyat hokimlari, huquqni muhofaza qilish idoralari rahbarlari hozir bo'ldi. U erdan nari tobutlar viloyatlarga olib ketildi. Shu kuni janoza namozlari o'qildi...

Yuqorida hamma o'ziga yarasha xulosalar chiqara boshladi dedik. Lekin xulosa chiqarib hamma ham o'zini to'g'ri isloh qilishni boshladimi? Aytaylik, kimdir oddiy mo'min banda sifatida ba'zi ma'siyatlariga astoydil tavba qilib bir kun kelib hayotdan ko'z yumishini va bu ma'siyatlariga javob berishini o'ylab, buni qaytarmaslikka ahd qildimi? Yoki mas'ul rahbar bo'ladimi, mutaxassismi, o'qituvchimi, iqtisodchimi, har bir davlat xizmatchisi davlatimiz rahbariga o'xshab o'zini aybdor his qila oldimi, aybdor his qilgan bo'lsa ham biron bir o'zgarish qilishga, qat'iy bir qaror qabul qilib, biron bir ish qilishga kirishdimi? “Har bir davlat xizmatchisi har kuni o'zining mehnati bilan egallab turgan lavozimiga loyqligini isbotlashi shart” degan qoidani o'ziga to'g'ri qabul qildimi? Hammaning bunga beradigan javobi avvalo o'z vijdoniga havola.

Men bir narsani aniq ayta olamanki, Farg'ona viloyati hokimi Shuhrat G'aniev Toshloqlik ushbu fojea qurbonlariga o'z farzandiga, o'z jigariga kuygandek qattiq alamda, o'zini ham aybdor his qilayotgani aniq!

Shu bilan birga yig'ilishda aytgan hamma fikrlari aslo xalqini mensimaslik, Toshloq ahlini yomon ko'rish ham emas. Mutlaqo aksincha, nima qilib bo'lsa ham shunday holat, shunga o'xshash holat yana takrorlanmasligi uchun hammani hushyor bo'lishga chaqirish, mas'uliyatni eng katta darajaga oshirish, o'zini ham ayab o'tirmay jon kuydirayotgani bu! Ko'pxotinlik qilayotgan, xotinlarini qo'yvorib, bolalarni tirik etim qilib, alimentini to'lamayotganlarni, yoki bo'lmasa, ichki ishlar hodimlarini nohaq bo'la turib toshbo'ron qilganlarni qaysi birining haqqiga kim iliq gap ayta oladi o'zi!!! Bu yerliklarning Xajga borishni taqiqlayotgani sababi ortida nima maqsad borligini, “undan ko'ra chetga chiqib ketishga majbur bo'layotgan muhtojlarga ber shu pulingni” demoqchi bo'lyapti deb tushunib etganlar ham bormi o'zi?

Ko'pam xayrli niyatda bo'lmagan, yashirincha ko'chirib olingan audioyozuvni eshitib olib, islom dinimizda ham aksariyat hollarda alohida shaxslarga, alohida holatlardan kelib chiqib hukm chiqarishga to'g'ri keladigan masala bo'lishi mumkinligini ham ehtimolini olib o'tirmay nima qilishini bilmay o'tirgan biz qalami o'tkirlar gursillatib toshbo'ronni boshlab yubormasdan, tanganing ikkinchi tomonini ham hisobga olsak, sal insof qilsak bo'lar edi

Viloyat hokimi achchiq so'zlar deb haqiqatan ham butun Toshloq ahlini aytayotganiga ishonchingiz komilmi o'zi? Nahotki inson butun boshli vatandoshlarini shunchalik yomon ko'rib, o'zining butun xalqini haqorat qilishi mumkin deb o'ylaymiz...

Yo'q. Bu erda gap faqat va faqat o'z vazifasiga noloyiq, o'z burchini talab qilinayotgan darajada bajarmay, egallab turgan mansabini, olayotgan maoshini oqlay olmayotganlar haqida, egasini topib

olishi lozim bo'lgan, ayrim ma'naviyati buzuvchi haqida ketayotganini ichimizda ko'pchiligimiz bilib ham turibmiz...

Yana bir fikr ham bor: aslida kim kafolat bera oladi maqola yozayotgan mualliflarning fikri tiniqligigayu, ko'rib gaplashib ko'rmagan odami haqidagi chiqarayotgan xulosasi adolatligigayu, yoki "fursati keb qoldi, qandingni urib qol" deb, xalqni bir "evropacha" ilg'orlikka chorlab, gij-gijlamochi emasligiga?

Yoki bo'lmasa shu kungacha viloyat hokimligidagi olib borilayotgan bunyodkorlik, rivojlanish masalalari, yuzlab katta tadbirlar, amaliy ishlar to'g'risida biron marta ma'lumot so'rab qiziqmagan, lekin bir o'ziga yoqadigan gapni eshitib qolib, idoraning istalgan bo'limlariga tinimsiz qo'ng'iroqlar qilib "xolisona" axborot tarqatuvchi markazlarning ko'rinib turgan ayyorona berayotgan savollari, harakatlaridan ham xulosa chiqarib, mavzuga chuqurlashishni to'xtatsak bo'lar?

Yana bir gap. Hamma maqola o'qib, yangiliklardan xabardor bo'lib, internetda o'zining chiroyli munosabatini bildirib o'tirgani bilan hayot yaxshilanib qolmasliginiyam tan olish kerak, manimcha. Amalda nima ish qilish kerak o'zi? Xamma o'zi bilganicha ish qilaversinmi. Yoki kimdir qattiqroq tegib, hali nima bo'lganini his qilib ulgurmagan mas'ullarni ko'zini ochib qo'yishi ham kerakdir balki...

... Rahbar ham oddiy bir inson. Alamda qolgan har qanday inson singari u ham qizishib alamini kimdandir olgisi keladi yoki o'zidan tashqari ham aybdor deb bilgan odamiga tushuntirib qo'ymoqchi bo'lishi ham mumkin. Lekin fursat o'tib alam ustida aytilgan gaplarni bir chetga surib, har bir ishni o'z qonun-qoidalariga ko'ra amalga oshirish kerakligini ham tan oladi.

So'nggi fikr. Mamlakat rahbari ham uzoq vaqtdan buyon ayrimlarga qilayotgan ishlari yoqmasa ham, lekin belgilangan vazifalarni bor kuch-imkoniyati, butun vujudi bilan bajarib, sidqidildan, o'zini ayamay ishlayotgan, ko'pchilik ham bilavermaydigan qiyinchiliklarni boshidan kechirib, viloyat erishayotgan yutuqlarga sabab bo'layotgan aynan shu inson bilan shuncha vaqtdan beri birga ishlab, mazkur vazifada mehnat qilishiga hayrixoh bo'lib kelayotgani behikmat emasligi haqida ham o'ylab ko'rsak yomon bo'lmasdi...

Zero, Sadridin Salim Buxoriy aytganlaridek,

Illat izlaganga illatdir dunyo,

G'urbat izlaganga g'urbatdir dunyo.

Kim neni izlasa, topgay begumon,

Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo.

Abdulazizxon Abdasov

viloyat hokimligi axborot tahlil guruhi

yetakchi mutaxassisi-matbuot kotibi

2018-01-25 18:47:19